TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Mansurova Odinaxon Ulug‘bek qizi
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi bilan ta’lim jarayoning sifat samaradorligida salmoqli o‘zgarishlar kuzatilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohatlari jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning mavjud imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, elektron axborot, mediakompetentlik, ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio.

Annotation: With the introduction of information technologies into the educational system, we can see significant changes in the quality and efficiency of the educational process. This article discusses the possibilities of using digital technologies in the course of educational reforms in our country.

Keywords: information technology, electronic information, mediacompetence, ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio.

Dunyodagi axborotlashgan jamiyat muhiti ta’lim tizimiga kuchli ta’sir etmoqda. Bugungi muntazam amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, innovatsion jarayonlarning asosiy vazifalardan biri raqamlashtirish jarayoni xususiyatlariga to‘la moslashish hisoblanadi. Xalqaro miqyosda

ijtimoiy institutlarning ta’lim tizimi boshqaruvidagi o‘zaro hamkorligini takomillashtirish dolzarbligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Shuning uchun ham Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini axborotlashtirishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish, integrativ ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Dunyoning hozirgi rivojlanish bosqichi ilmiy axborotlar hajmining mutassil o‘sib borishi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni[1], 2012 yil 21 martdagi “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2013 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorlari, [2]

Hukumatning tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlari ijrosini ta’minlash, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va multimedia resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.[3]

Ta’lim muassasasining elektron axborot ta’lim muhitini yaratish sof texnik masala bo‘lib qolmasdan, balki buning uchun muassasaning ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarini tizimli yondashuv asosida ishga solish talab etila di.

Axborot texnologiyalari mikro va makrodunyodagi, murakkab qurilmalar, biologik tizimlardagi hodisa hamda jarayonlarni kompyuter grafikasi va modellashtirishdan foydalanish asosida o‘rgatish, juda katta yoki kichik tezlikda sodir bo‘ladigan fizik, astronomik, kimyoviy, biologik jarayonlarni qulay vaqt o‘lchamida taqdim etish kabi yangi didaktik masalalarni echishga yordam beradi.

Shu bois, ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – hodisa va jarayonlarni kompyuterda modellashtirishdir. Kompyuter modellari an’anaviy darsning tarkibiga hamohang bo‘lishi va o‘qituvchi uchun kompyuter ekranida, ko‘p effektlarni namoyish etishiga, o‘quvchilarning yangi, noan’anaviy o‘quv faoliyatini tashkil etishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlaydigan pedagog quyidagi kompetentsiyaviy talablarga javob berishi kerak:

Mediakompetentlik sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishligi;

Mediakompetentlik (media competence) ta’lim tizimimizdagi nisbatan yangi atama hisoblanib, u media ma’lumotlarni turli ko‘rinishda uzatish va baholash, o‘rganish, yetkaza bilish kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi.

Mediata’lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi. Professor A.B.Fyodorov zamonaviy olamdagi mediata’limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, mediamatnlarni to‘laqonli idrok etish, talqin qilish, tahlil qilish va baholash mediatexnika yordamida o‘z-o‘zini ifodalashning turli shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya(media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi.

- Elektron darsliklar yarata olish va ular bilan erkin faoliyat olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

- ZOOM, Google meet, Google disk, Camtasio studio kabi dasturlarda erkin ishlay olish;

- Masofaviy ta’lim platformasini kreativ yangiliklar bilan boyitib borish va boshqalar.

Dunyo miqyosida koronavirus pandemiyasi barcha sohalar singari ta’lim tizimiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Karantin qoidalari ko‘plab an’anaviy ta’lim shakllari va metodlarini samarasiz holatga solib qo‘ydi. Bu vaziyatda quyidagi muammo va kamchiliklar ko‘zga tashlandi:

- Internet aloqasi sifatining notekis taqsimlanganligi;

- AKT moslamalarining ta’lim sub’ektlari barchasida ham yetarli emasligi;

- Ta’lim sub’ektlarida media-axborot qurilmalaridan foydalanish ko‘nikmasi (mediasavodxonlik darajasi)ning pastligi;

- Masofaviy ta’lim shaklida ta’lim sub’ektlari uchun javobgarlikning to‘liq ta’minlanmaganligi kabi bar qator kamchiliklar ko‘zga tashlandi.

Ta’limni axborotlashtirish bo‘yicha kadrlar tayyorlashning umumpedagogik tamoyillarini quyidagicha keltirish mumkin:

- kasbiy yo‘nalishga nisbatan bazaviy tayyorgarlikning invariantligi, uning axborot, kommunikatsiya, umummadaniy jihatlarga yo‘naltirilganligi, axborot-lashgan jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasiga mosligi;

- pedagog kadrlarni tayyorlashni ixtisoslashtirish, ya’ni aniq bir fan bo‘yicha axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishga yo‘naltirilganlik;

- pedagog kadrlar tayyorlashning differentsiallashgani, uning shaxsiy afzalligiga, kasbiy ehtiyojiga va talabalarning xususiyatlariga yo‘naltirilganligi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim islohatlari jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayonida qo‘llash, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron manbalardan foydalanish shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish xamda oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlarini axborotlashtirish tamoyillari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish bo‘yicha sotsiologik tadqiqotlar olib bormoqda.

Xulosa sifatida OTMlarda samaradorlikni yanada oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ta’lim sub’ektlarining mediakompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish (You tube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda mavjud AKT turli dasturlaridan foydalanish videodarslarini o‘zbek tilida ham ko‘paytirishni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash);

- ta’lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash jarayonini nazoratga olish va amaliy qo‘llab-quvvatlash, chekka hududlarda ham internet aloqasi va texnik jihozlar tizimli faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni Veb-saytlarga muntazam joylab borish;

- elektron boshqarish tizimlarini faoliyatga keng joriy etish va qog‘ozbozliklarni, vaqtni o‘g‘irlovchi keraksiz hujjatlarni keskin kamaytirish;

- masofaviy ta’lim platformasida, shuningdek barcha ijtimoiy tarmoqlarda ham subektlarning mas’uliyatliligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. “O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori
4. Akbarjonovich M.A. (2023). An analytical approach to the elimination of corruption. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 2045-2047.
5. Mansurov A. Development stages of migration from a historical point of view //UzMU xabarlari. – 2024. – T. 1. – №. 1.1. – C. 108-111.
6. Akbarjonovich M. A. et al. The Economy of the Baburian Empire. – 2023.
7. Abdulaziz M. Migratsiyani ijtimoiy zarurat sifatidagi ahamiyati //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 38-40.
8. Abdulaziz M. Migratsiya tushunchasining tahlili va uning muammoli jihatlari //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 32-34.
9. Erkinovna T.N. The influence of social communications on the formation of alienation and loneliness. – 2023.
10. Erkinovna T.N. The development of sociology and its role in the life of society //Galaxy international interdisciplinary research journal. – 2022. – т. 10. – №. 11. – с. 1320-1323.
11. Temirova N. Begonalashuv tushunchasi talqini uning sabablari va bartaraf etish zarurati //news of the nuuz. – 2024. – T. 1. – №. 1.10. – c. 162-164.